

Madaminov Xurshid Xomidovich

Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarini
qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti
Farg'ona filiali o'qituvchisi

JISMONIY TARBIYA VA SPORT MASHG'ULOTLARIDA KASBIY KOMPETENSIYAGA ASOSLANGAN YONDASHUV

Annotatsiya. Ushbu maqola jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarida kasbiy kompetensiyaga asoslangan yondashuv masalasiga bag'ishlanadi. Maqolada jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarida kasbiy kompetensiyalarni takomillashtirishning nazariy jihatlari yoritilgan.

Kalit so'zlari: kompetensiya, malaka oshirish, jismoniy tarbiya, sport, madaniyat, o'qituvchi, kasbiy, kompetentlik.

ПРОФЕССИОНАЛЬНО-КОМПЕТЕНТНОСТНЫЙ ПОДХОД В ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЕ И СПОРТЕ

Абстрактный. Статья посвящена проблеме профессионально-компетентного подхода в физическом воспитании и спортивной подготовке. В статье рассматриваются теоретические аспекты совершенствования профессиональных компетенций в области физической культуры и спорта.

Ключевые слова: компетентность, повышение квалификации, физическая культура, спорт, культура, педагог, профессионал, компетентность.

PROFESSIONAL COMPETENCY-BASED APPROACH IN PHYSICAL EDUCATION AND SPORTS

Annotation. This article is devoted to the issue of a professional competency-based approach in physical education and sports. The article covers the theoretical aspects of improving professional competencies in physical education and sports.

Keywords: competence, advanced training, physical education, sports, culture, teacher, professional, competence.

Mamlakatimizning kelajagi bo'lgan ma'naviy va jismoniy sog'lom avlodni dunyoga keltirish ularni xalqimizning tarixiy, milliy va umuminsoniy qadriyatlari asosida komil insonlar qilib tarbiyalash g'oyasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Sog'lom avlod g'oyasining asosiy maqsadi millat genafondini saqlab qolish va sog'lomlashtirish, milliy mentalitetni tiklash, buning uchun jismoniy va ma'naviy sog'lom avlodni shakillantirish, iqtidorli va salohiyatli yoshlarni komil insonlar qilib tarbiyalashdan iboratdir.

Albatta, ushbu vazifalarni amalga oshirishda ustoz-murabbiylarning o'rni beqiyos. Boshqacha aytganda yangi O'zbekistonning yangi o'qituvchisi, degan yuksak ma'naviy va intellektual maqomni ko'tarilish kerak. Ular avvalo vatanparvar bo'lishlarari, bolalarni, pedagogik ishini sevishlari, dars o'tish mahoratini kun sayin oshirib borishlari, ta'lim-tarbiyaning zamon talablariga mos bo'lishiga intilishi, mehnatsevarligi, haqiqatgo'ylik, irodalilik, notiqlik, pedagogik takt, ijodkorlik, tashkilotchilik mahoratiga ega bo'lishi, sabrli bag'rikeng, qat'iyatli, intizomli bo'lishlari zarur. Yangi O'zbekiston o'qituvchisiga ana shunday mas'uliyat yuklatilmoqda.

Buning uchun unda kasbiy kompetensiyalar bilan birga kasbiy-ma'naviy-axloqiy fazilatlarini uyg'unlashtirish, pedagogik mas'uliyatini oshirish, fanlarning har bir mavzusiga tarbiyaviy maqsadida samarali foydalanish mexanizmlarini bilishi lozim.

Bu fikrlar bevosita jismoniy madaniyat o'qituvchilari uchun ham taalluqlidir. Jismoniy tarbiya o'qituvchilari zimmasiga jismoniy sog'lom, ma'naviy etuk mustaqil fikrga ega bo'lgan barkamol avlodni tarbiyalashdek ma'suliyatli vazifa yuklatilgan. Ushbu ma'suliyatli vazifalarni bajarish jismoniy madaniyat o'qituvchisidan chuqur bilim, kasbiy tayyorgarlik pedagogik mahorat va ma'suliyatni talab qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2023-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 2019-yil 8- oktyabirdagi PF-5847-son farmoni [1], O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi "Uzluksiz

ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1059-son qarori [2], Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi "Umumiy o'rta va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risi"gi 187-son qaroriga asosan, umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim, davlat ta'lim standartlarini kompetensiyaviy yondashuvlar asosida takomillashtirilmoqda[3].

Lug'atlarda "kompetensiya" tushunchasi bir necha ma'noga keladi. Masalan, muayyan kompetensiyaga ega bo'lgan, biror bir mansabdor shaxsning faoliyatida vujudga keladigan muammo, vaziyatlarga "competentia (lotin) 1-qonun bo'yicha taaluqli funksiyalarni amalga oshira oluvchi; 2-ma'lum savollar to'plamiga javob bera oladigan, malakali mansabdor shaxsni anglatadi.

Pedagog olimlar E.A. Seytxalilov, B.X. Raximov, I.U. Madjidovlar tomonidan nashr etilgan "Pedagogik slovar-spravochnik" lug'atida "kompetentlik" termini biror-bir sohaga taaluqli bilimga egalik, xabardorlik "kompetensiya" so'zini esa "ma'lum savollarga javoblarni yaxshi biladigan kishi" yoki "biror ishni qilish huquqiga ega odamlar doirasi" sifatida talqin etilgan [4].

Mualliflar kompetensiya biror sohada insonning o'sha sohada ma'lim bilim, ko'nikma ega ekanligini, buni o'zidagi aniq bilim, ko'nikma va malakalarga asoslanib tasdiqlay olishini ko'rsatadi. Pedagog olimlarning fikriga ko'ra bu tushuncha G'arbda inson va uning resurslariga yangicha qarash talablari asosida paydo bo'lib, ish o'rinlariga bo'lgan ehtiyoj va texnologiyalarning intensive o'zgarishiga moslashishi zaruriyatini keltirib chiqaradi, bunday yondashuv insonni kasbiy faoliyatiga tayyorlashning xususiyatlarini bu esa kasbiy vaziyat hamda bilim o'rtasida aloqa o'rnatgan olimlarini vujudga kelgan muammoni muvofaqiyatli hal etilishga tizimli yondashuvni nazarda tutadi.

Shu sababli, amaliy vaziyatlarda mutaxassisning o'z bilimini amalda ko'rsata olish muhim, aniqroq kompetentlik birinchi, bilimlilik keying o'rinda tutadi.

"Kompetensiya" atamasining ta'rifiga kelsak, u odatda bilim, ko'nikma va individual xususiyatlar, masalan, motivatsiya, o'z-o'zini anglash, shaxsiy xususiyatlar, munosabatlar, e'tiqodlar, qadriyatlar va qiziqishlar yig'indisi sifatida tushuniladi. va ishlashdagi farqlarni belgilovchi omillar bo'lishi mumkin.

Kompetentsiyani o'qitish muammolarini hal qilish va ijtimoiy kontekstni yaxshilash, bilimlarni qo'llash va resurslardan samarali foydalanishga yo'naltirilgan samarali harakatlar turi bilan bog'liq. Muxtasar qilib aytganda, u o'lganishi mumkin bo'lgan va duch keladigan murakkab vaziyatlarni optimal hal qilishda hal qiluvchi bo'lgan bilim, ko'nikma va individual xususiyatlardan foydalangan holda o'z-o'zidan mas'uliyat bilan kontekstli muammolarini hal qilish qobiliyatini beradi.

Pedagogika fanlari doktori M.Bahabovning fikricha "kompetentiya" deganda, o'quvchilar tomonidan egallangan bilim va ko'nikmalarni mustaqil ravishda shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarda qo'llay olish layoqati tushuniladi", deb izohloydi[5]. Tadqiqotchi A. Salomovni ta'kidlashicha "Mamlakatimizda pedagogik kadrlarning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlashga keying paytlarda noan'anaviy tarzda yondashmoqda. Malaka oshirish ta'limida pedagog-o'qituvchilar faoliyatida andoza tarzda o'rnatib qolgan "qanday qilib o'qitish nazariyasidan voz kechib bugungi kunimizga hamohang bo'lgan "kimni o'qitish" nazariyasiga o'tilsa, bizningcha, maorif, ta'lim va tarbiya sohasida aniq maqsadli yo'l tanlangan bo'lar edi.

Buning uchun umumiy o'rta ta'lim maktablarda faoliyat yuritayotgan o'qituvchi-pedagoglar va murabbiy shaxs sifatida o'quvchi maxsus va uning o'ziga xos psixologiyasini to'g'ri yo'naltirish bilim layoqatiga ega bo'lishi lozim. Xalq ta'limni xodimlari malakasini oshirishda ularning kasbiy bilim va malakalarini "Ta'lim to'g'risida"gi qonun talablariga muvofiq chuqurlashtirish va yangilash bosh maqsad bo'lib, hozirda ushbu maqsad quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi:

-har bir pedagog xodimning metodik mahoratini oshirish va mutaxassisligi bo'yicha so'nggi yangiliklar bilan tanishtirish;

-kasbiy-pedagog faoliyatini yuqori darajada bo'lishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan ish ko'nikmalarini mustahkamlash, yangilikka intiluvchanlik va mustaqil mutola qilishga doimiy zaruriyat sezish psixologiyasini singdirish;

-o'quv jarayoniga pedagogik texnologiyalarning joriy etih;

Pedagogik kadrlar malakaini oshirishda hayotiy zaruriyat sifatida quyidagi pedagog muammolarning echimi kelgusidagi vazifalar sifatida namoyon bo'lmoqda;

-Kurs tinglovchisiga ta'lim mazmuniga kiritilgan yangiliklar va o'zgarishlarni etkazish;

-Malaka oshirish kurslari o'quv rejasini va mashg'ulotlar mazmunining zamonaviy talablar asosida yangilab borish;

-Tinglovchilarning bilim, malaka oshirish kurslarining o'quv-mavzu reja va dasturlarini muhim qilib, ularning taklif va ehtiyojlari asosida zarur o'zgartishlar kiritish;

-Pedagog xodimlarning kasb mahoratini takomillashtirish uchun zarur sharoitlar yaratish;

-kurs davomida tinglovchilarning o'zaro tajriba almashishishlarni tashkil qilish, ularni qiynab kelayotgan savollarga javob berish muammolar, javobsiz qolgan talab va istaklari va hamda ehtiyojlarini o'rganish;

-tinglovchilarning bilim va ko'nikmalarini kurs boshlanishida va oxirida test sinovlarni asosida aniqlash malaka oshirish sifatini nazarot qilishda pedagogik diagnostika qilish usullaridan foydalanish, olingan natijalar asosida malaka oshirishni takomillashtirish choralarni qo'llash;

-pedagogik kadrlar malakasini oshirishda jahon tajribalaridagi noa'anaviy usullardan, ya'ni masofadan o'qitish, internet tizimidagi ma'lumotlar bazasidan samarali foydalanishni takomillashtirish kabi vazifalarni tashkil etadi, - deb ta'kidlaydi muallif.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, jismoniy tarbiya o'qituvchilarining faoliyati, ish uslublarining, shaxsiy, kasbiy, umummadaniy, maxsus kompetensiyalarini o'rganish, kuzatish, tahlil qilish shuni ko'rsatmoqdaki, bu borada echimini kutib turgan muammolar talaygina. Muammolarning yechimlardan biri jismoniy tarbiya va sport bo'lgan mutaxassislarini xususan olganda jismoniy madaniyat o'qituvchilarini qayta tayyorlash va ularni malakasini oshirish tizimini takomillashtirish lozim. Buning uchun birinchidan, malaka oshirish jarayonida jismoniy madaniyat o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini takomillashtirish ijtimoiy zarurat ekanligini aniqlash, ikkinchidan, jismoniy madaniyat o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini takomillashtirishning ilmiy, tarixiy, falsafiy, adabiy, diniy manbalardan tahlil va talqinlarning o'rganilganlik darajasini aniqlash, uchinchidan, jismoniy madaniyat o'qituvchilarining malaka oshirish jarayonida o'qitiladigan o'quv modillari, unda berilgan mavzularining jismoniy madaniyat o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini takomillashtirish qanchalik darajada xizmat qilayotganligini, o'quv rejadagi qaysi o'quv modullarning imkoniyatlari qay darajada ekanligini aniqlash.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8- oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2023-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni // <https://lex.uz/docs/-4545884>

2.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-son "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori // <https://lex.uz/docs/-4676839>

3.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-son "Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori // <https://lex.uz/docs/-3153714>

4.Pedagog olimlar E.A. Seytxalilov, B.X. Raximov, I.U. Madjidovlar tomonidan nashr etilgan "Pedagogik slovar-spravochnik" lug'atida. Toshkent 2008.

5.Pedagogika fanlari doktori M. Bahabovning "Pedagogika va psixologiya" ilmiy-nazariy va metodik jurnali 2024-yil, 1-son.

6. Karimova V.M. [va bosh.] Boshqaruv sohasidagi professional kompetensiya asoslari. Monografiya. / Prof. V.M. Karimova tahriri ostida. – Toshkent: «Fan va texnologiyalar», 2008. – 128 b.